



Yevropa ittifoqining moliyaviy
ko'magi bilan ta'minlandi



unicef 

Har bir bola uchun

SURXONDARYO VILOYATIDA INKLUYZIV TA'LIM, IJTIMOIY XIZMATLAR VA HUQUQIY YORDAMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

UNICEF TOMONIDAN AMALGA OSHIRILAYOTGAN, YEVROPA ITTIFOQI VA
UNICEF TOMONIDAN MOLIYALASHTIRILGAN LOYIHA



BOLALARНИ ЗО'РАВОНЛИКНИНГ БАРЧА ТУРЛАРИДАН ХИМОЯ QILISH

Mazkur nashr Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko'magi yordamida tayyorlangan. Uning mazmuniga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va UNICEF mas'uliyatlari bo'lib, bu masala bo'yicha Yevropa Ittifoqining nuqtai nazarini aks ettirmasligi mumkin.



Zo'ravonlik bu kimningdir tanangiz va his-tuyg'ularingizga zarar yet-kazish maqsadida sizga qarshi kuch ishlatishidir. Biz buni to'xtatmoq-chimiz, chunki har bir bola xavfsiz va baxtli yashashga loyiq.




Zo'ravonlik hech qachon qabul qilinmaydi va bolalarga nisbatan zo'ravonlikni qo'llash ularning aybi hisoblanmaydi. Barcha bolalar — xavfsiz va xotirjam bo'lishga haqli. Bu sizning yoshingiz, jinsingiz, madani-yatingiz, diningiz, ma'lumotingiz, qayerda yashashingiz yoki qayerdan kelganingizga bog'liq emas.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik bolaning sog'ligi, uning jismoniy va aqliy rivojlanishi, axloqiga jiddiy ziyon yetkazadigan harakatdir. U bolaga jismoniy kuch ishlatish, qo'rqtish, ruhiy bosim o'tkazish va boshqa usullar orqali uning tengdoshlari, yoshi kattaroq bolalar, qarindoshlar yoki begonalar tomonidan sodir etilishi mumkin.



Afsuski, dunyoning barcha mamlakatida bolalarga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi mumkin. Dunyo statistikasi shuni ko'rsatmoqdaki:



Bu vaziyatni o'zgartirish va bolalarga nisbatan zo'ravonlikni to'xtatish maqsadida butun dunyo mamlakatlari **Barqaror rivojlanish maqsadlari-ni** kun tartibiga kiritdilar. Bu bolalarga nisbatan zo'ravonlikni to'xtatish bilan bog'liq aniq vazifalarni o'z ichiga oladi. Barqaror rivojlanish maqsadlaridagi **5.1 va 16.2. vazifalar** ana shunday aniq vazifalar hisoblanadi.

Har bir bola zo'ravonlikning barcha shaklidan himoya qilinishga haqli. Zo'ravonlikdan himoya qilish kafolatlari esa xalqaro huquqiy hujjatlar va qonunchiligidizda belgilangan.

O'zbekiston dunyoning boshqa ko'plab mamlakatlari singari BMTning **Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini** ratifikatsiya qilgan. Unda har bir bola xavfsiz, sog'lom va baxtli bo'lishi lozim deyilgan maxsus qoidalar to'plami bor.

Konvensiyadagi ikkita qoida quyidagilarga taalluqli:



Siz xavfsiz bo'lishga haqlisiz, demak, sizga zarar yetkazishi yoki sizni qo'rqitishi mumkin bo'lgan narsalar, masalan, zo'ravonlik yoki yomon munosabatdan muhofaza qiliningiz lozim.



Siz o'z oilangizning mehriga va o'zingizni xavfsiz his qiladigan va sizga g'amxo'rlik qiladigan uyga ega bo'lishga haqlisiz.

Hech qachon bolalarga nisbatan zo'ravonlik ishlatilmasligi kerak, chunki bu ularning tanasi va ongiga zarar yetkazadi, ularga ozor beradi. Zo'ravonlik bolalarni xafa qilishga, qo'rqishga va azob chekishga majbur qiladi. U shuningdek, depressiyaga va o'z joniga qasd qilish fikri kabi salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin va u bolada uzoq vaqt davomida, hatto balog'at yoshida ham saqlanib qolishi mumkin. Zo'ravonlik bolalarning ulg'ayishi va ta'lim olishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

**Yodda tuting: kimdir bolaga nisbatan zo'ravonlik qilayotgan bo'lsa,
bola aybdor emas! Bu — bolaga zo'ravonlik ishlatayotgan
insonning aybi!**

Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning qanday turlari bor?



1. Jismoniy zo'ravonlik: bu kimningdir sizga zarar yetkazishi, masalan, urishi, itarib yuborishi yoki shapaloq tushirishidir.



2. Jinsiy zo'ravonlik: kimdir sizning (intim joylaringiz) jinsiy a'zolaringizga tegishi yoki sizning tanangizga sizga yoqmaydigan yoxud siz xohlamaydigan biron narsa qilishi, (intim joylar) jinsiy a'zolar yoki jinsiy xatti-harakatlar tasvirlangan fotosuratlar yoki videolar ko'rsatishidir.



3. Hissiy zo'ravonlik: ba'zan insonlar sizni xafa qiladigan qo'pol yoki qo'rqinchli gaplarni gapirishadi.



4. Ta'qib qilish (bullying): kimningdir siz bilan qayta-qayta qo'pol munosabatda bo'lishi ta'qib deb ataladi. Bu internet yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilsa, kiberta'qib deyiladi.



5. G'amxo'rlikning yo'qligi, beparvolik: agar kattalar sizga kerakli narsa, masalan, ovqat, mehr bera olishmasa yoki sizga g'amxo'rlik qilishmasa, bu g'amxo'rlikning yo'qligi yoki beparvolik deb ataladi.

BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK QAYERDA SODIR ETILISHI MUMKIN?

Zo'ravonlik istalgan joyda sodir etilishi mumkin. Mana, bir nechta misol:



1. Uyda: ba'zan oila a'zolari bir-birlaridan norozi bo'lishi mumkin. Shunda ham zo'ravonlik sodir etilmasligi kerak, mabodo shu narsa yuz bersa, bu haqda o'zingiz ishongan kattalar-ga xabar berishingiz zarur.



2. Maktabda: ta'qib qilish (bullying) – bu zo'ravonlikning bir turi bo'lib, maktabda teng-doshlar yoki yoshi kattaroq bolalar tomonidan sodir etilishi mumkin. Shuningdek, zo'ravonlik o'qituvchi tomonidan ham sodir etilishi mumkin. Agarda biron bir o'quvchi ustingizdan kulsa, bu haqda o'qituvchiga yoki o'zingiz ishongan kattalarga xabar bering. Agar o'qituvchi ham sizga yomon munosabatda bo'lsa, bu haqda o'zingiz ishongan kattalarga xabar bering.



3. Qo'shni bilan: ba'zan o'zingiz yashayotgan hududdagi insonlar kelishmay qoladi. Bunday vaziyatlardan uzoqroq bo'lishga harakat qiling. Agarda biron narsa sizni xavotirga solsa, bu haqda kattalarga xabar bering.



4. Internet tarmog'ida: internet tarmog'ida noxush hodisalar yuz berishi mumkin. Agar siz noqulaylik yoki qo'rquv uyg'otadigan biron narsani ko'rib qolsangiz, bu haqda kattalarga xabar bering.



5. Jamoat joylarida: istirohat bog'lari yoki do'konlar singari jamoat joylarida zo'ravonlik kamroq sodir bo'ladi. Biroq biron-bir noxushlikning guvohi bo'lsangiz, kattalarni topib, bu haqda ularga xabar bering.

Bunga yo'l qo'ymaslik uchun hukumatlar nima qilishi kerak:
hukumatlar sizning xavfsizligingizni ta'minlash uchun qoidalar ishlab
chiqadigan katta yordamchilarga o'xshaydi.



- 1. Zo'ravonlikka qarshi qonunlar:** ular zo'ravonlikni to'xtatish va bolalarga zarar yetkazadigan insonlarni jazolash uchun qat'iy qonunlar qabul qilishi kerak.
- 2. Xavfsiz joylar:** hukumatlar siz yordamga muhtoj bo'lganda mu-rojaat qilishingiz mumkin bo'lgan xavfsiz joylar, masalan, ishonch telefoni yoki siz ishongan inson borligi haqida qayg'urishi kerak.
- 3. Ta'lim:** ular maktablarda barchaga yaxshilik va hurmatni o'rgata oladi.
- 4. Bolalarni tinglash:** hukumatlar sizni eshitishi va zo'ravonlik haqidagi ularga gapirganiningizda sizga ishonishi kerak.

SIZ UCHUN XAVFSIZLIK QOIDALARI

Quyida sizning xavfsizligingizni ta'minlashga yordam berishi mumkin bo'lgan bir nechta asosiy qoidalarni keltirib o'tmoqchimiz:

Sizning tanangiz — sizga tegishli! Agar siz kimnidir quchoqlashni istamasangiz, "Yo'q" deyishga haqlisiz!

Xavfsizlik tarmog'ini yarating! Siz ishonishingiz mumkin bo'lgan, bemalol gaplasha oladigan, ular ham sizga ishonadigan besh nafargacha bo'lgan kattalarni aniqlang. Agarda qandaydir bezovtalik, qo'rquv yoki ishonchsizlik his etsangiz, ana shu insonlar ga nimani his qilayotganingiz va nima sababdan o'zingizni bunday his qilayotganingiz haqida aytib berishingiz mumkin.



Ogohlantiruvchi belgilari: agar siz qandaydir qo'rquv yoki bezovtalikni his etsangiz, sizdan kuchli ter chiqishi, oshqozon faoliyati buzilishi, sizni titroq tutishi, yurak urishi tezlashishi mumkin. Bular ogohlantiruvchi belgilardir. Agarda shunga o'xshash biror narsani his qilsangiz, bu haqda o'zingiz ishongan kattalarga zudlik bilan xabar bering!

Sirlar: hech qachon o'zingizni noxush yoki noqulay his qilishga majbur qiladigan sirlarni saqlamang. Agarda kimdir sizdan o'zingizni yomon his qilishga sabab bo'ladijan biron bir sirni saqlashni so'rasha, o'zingiz ishongan kattalardan biriga bu haqda xabar bering!

Tanuning jinsiy a'zolari (intim joylari): hech kim sizning jinsiy a'zolaringizga tegishi mumkin emas va boshqalar ham sizdan ularning jinsiy a'zolariga tegishingizni so'rashga haqli emas. Hech kim sizga jinsiy a'zolarning fotosuratini ko'rsatmasligi kerak. Shunga o'xshash voqeа sodir bo'lsa, bu haqda o'zingiz ishongan kattalardan biriga zudlik bilan xabar bering!

INTERNET VA QURILMALARDAN FOYDALANISH



Internet tarmog'ida begonalar bilan muloqot qilganda juda ehtiyot bo'ling. Hech qachon ularga o'zingiz, oilangiz haqidagi ma'lumotlarni bermang!




Agarda internet tarmog'idagi "do'stingiz" sizni noxush va xavfli biron ish sodir etishga majbur qilsa yoki tahdid solsa, yoki raqamli makonda qandaydir qiyin vaziyatga tushib qolgudek bo'lsangiz, zudlik bilan bu haqda ota-onangiz yoki o'zingiz ishongan kattalarga xabar bering!

ZO'RAVONLIKKA UCHRASANGIZ YOKI ZO'RAVONLIKNING GUVOHI BO'LSANGIZ, KIMGA MUROJAAT QILISH KERAK?

Zo'ravonlikni boshdan kechirgan yoki uning guvohi bo'lgan bola bu haqda kimgadir gapirishga qo'rqadi.

Masalan, jinsiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalar o'z oilasi sha'ni va obro'sini to'kishdan va boshqalarning fikridan qo'rqib, dardlarini hatto ota-onalariga ham aytmaydilar.

Shuningdek, bolalar kattalarning ishonmasligidan qo'rqishi yoki aniqrog'i, boshqa biron bir katta yoshdagi kimsaga ishonishadi, deb o'ylashi mumkin.



YODDA TUTING!

Sizni xafa qilishga hech kimning:

- na begona insonlarning;
- na do'stlaringiz yoki tengdoshlaringizning;
- na o'qituvchi;
- na ota-onangizning;
- na oila a'zolaringizning haqqi yo'q.

Zo'ravonlik haqida xabar berish sizni va boshqalarni takroriy jarohatlardan himoya qilishga yordam beradi. Bu — atrofingizda sizni himoya qiluvchi devor barpo etish bilan bir xil.



Tasavvur qiling-a, agar hamma zo'ravonlik haqida bir-birini xabardor qilganida va zo'ravonlik qilgan inson javobgarlikka tortilishi haqida o'ylaganida edi, dunyo siz kabi bolalar uchun eng yaxshi va xavfsiz joyga aylangan bo'lardi.

Yodda tuting: zo'ravonlik yuz bergan taqdirda, siz aybdor boilmaysiz va bu haqda kimgadir xabar berishingiz mumkin. Yordam qo'lini cho'zish uchun kattalar hamisha yoningizda. **Shu bois, zo'ravonlikka uchrasangiz yoki guvohi bo'lsangiz, bu haqda o'zingiz ishongan kattalarga, masalan, ota-onangiz, o'qituv-chingiz yoki oila a'zolaringizdan biriga xabar bering!**

XULOSA:

Barchamiz, bolalar xavfsiz va baxtli hayot kechiradigan olamda yashashini istaymiz.

Yodda tuting: biron bir noxushlik yoki qo'rquvni his etsangiz, o'zingiz ishongan kattalar bilan gaplasting. Biz birqalikda zo'ravonlikni to'xtatishimiz va dunyoni bolalar uchun yanada go'zallashtirishimiz mumkin!



**O'ZINGIZNI ASRANG.
UNUTMANG: SIZNI SEVISHADI VA QADRLASHADI!**



Agarda zo'ravonlikka uchrasangiz yoki zo'ravonlikning guvohi bo'lsangiz, quyidagi telefon raqamlar siz uchun foydali bo'lishi mumkin:

- Ichki ishlar organlari (**102 yoki 1102 qisqa raqamlari**);
- Bosh prokuratura (**1007 qisqa raqami**);
- Bolalar Ombudsmani ofisi (**71-239-87-98; 71-239-82-99; 71-239-13-54**).

Agar siz biron bir davlat mansabdon shaxsi yoki xizmatchisi, xususan o'qituvchilar, shifokorlar, hamshiralar yoki istalgan internat muassasasi xodimi tomonidan sodir etilgan zo'ravonlikka duch kelsangiz yoki uning guvohi bo'lsangiz, quyidagi muassasalarga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin:

- Ichki ishlar organlari (**102 yoki 1102 qisqa raqamlari**);
- Bosh prokuratura (**1007 qisqa raqami**);
- Bolalar Ombudsmani ofisi (**71-239-87-98; 71-239-82-99; 71-239-13-54**).

Agar siz uyda zo'ravonlikka duch kelsangiz yoki uning guvohi bo'lsangiz, quyidagi muassasalarga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin:

- Ichki ishlar organlari (**102 yoki 1102 qisqa raqamlari**);
- Tuman (shahar) hokimiyatlarining bolalarni himoya qilish sektori;
- Bolalar Ombudsmani ofisi (**71-239-87-98; 71-239-82-99; 71-239-13-54**).

Agar siz o'quv muassasasida zo'ravonlikka duch kelsangiz yoki uning guvohi bo'lsangiz, bu haqda quyidagi muassasaga murojaat qilishingiz mumkin:

- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (**71-202-09-09**).

Iltimos, sizning huquqlaringizni himoya qila oladigan shaxslar va ularning telefon raqamlari, jumladan, zo'ravonlikning barcha turlaridan himoya qilish huquqi to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish uchun "O'zbekistonda bola huquqlari himoyachilari" qo'llanmasi bilan tanishib chiqing.

Yevropa Ittifoqi zamonaviy nou-xaular, resurslar va taqdirlarini bosqichma-bosqich birlashtirishga qaror qilgan 27 a'zo davlatdan iborat. 60 yil davomida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamjihatlikda o'z chegaralarini kengaytirib keldilar; Ittifoqqa a'zo davlatlar madaniy xilma-xillik, bag'rikenglik va shaxs erkinligini kafolatlagan holda barqarorlik, demokratiya va barqaror rivojlanish hududini yaratdilar. Yevropa Ittifoqi o'z yutuqlari va qadriyatlarini ittifoqdan tashqarida bo'lgan mamlakatlar va xalqlar bilan baham ko'rish tamoyillarini ilgari suradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – O'zbekiston Respublikasida jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi adliya organlari tuzildi. Adliya vazirligi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot beradi.

UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va harakatlar har bir bolaning huquqlari va farovonligini himoya qilishga qaratilgan. Biz hamkorlarimiz bilan o'z maqsadlarimizni amalga oshirishda birqalikda 190 mamlakat va hududlarda faoliyat olib boramiz. Bunda biz, asosiy e'tiborimizni dunyoning barcha chekkalaridagi bolalarning manfaati uchun, eng himoyasiz va chetlatilgan bolalarga qaratishga intilamiz. UNICEF bolalar huquqlarini hurmat qiladigan dunyoga o'z g'oyalarini amalda tatbiq etish uchun O'zbekistondagi davlat institutlari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, professional uyushmalar va ilmiy muassasalar bilan, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.

Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi delegatsiyasi

107B Amir Temur ko'chasi, Xalqaro biznes markazi 100 084 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 78 120 16 01 /02 /03 /04

Email: delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu

Veb-sayt: www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan_en

Facebook: www.facebook.com/edudeluzb

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

O'zbekiston Respublikasi 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 5

Tel: +998 71 207 04 43

Email: info@adliya.uz

Veb-sayt: www.adliya.uz

BMTning O'zbekistonidagi Bolalar jamg'armasi

Poytaxt biznes markazi 16 Sharof Rashidov ko'chasi 100 029 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 71 233 95 12

Email: tashkent@unicef.org

Veb-sayt: <https://www.unicef.org/uzbekistan/>

Facebook: <https://www.facebook.com/unicefuzb/>